ANDIJON VILOYATI OLTINKO‘L TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 4-aprel | 67-1-15-Q/25 | Oltinko‘l tumani hokimligi

Oltinko‘l tumani Markaz MFY hududidagi “Oltin sohil” ko‘chasida transport vositalarining bir tomonlama harakatlanishiga ruxsat berish hamda Chinobod ko‘chasi boshiga “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat etish to‘g‘risida

Transport vositalari va piyodalarning haraktlanishiga shart-sharoitlar yaratish, sodir bo‘ladigan transport hodisalari va transport vositalarining tirbandliklarini oldini olish maqsadida Oltinko‘l tuman yo‘llardan foydlanish davlat muasssasining 2024 yil 16 noyabrdagi 177- va 178-sonli xatlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddalasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1.Oltinko‘l tuman yo‘llardan foydalanish davlat muasssasining 2024 yil 16 noyabrdagi 177- va 178-sonli xatlari asos va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Oltinko‘l tumani Markaz MFY hududidagi “Oltin sohil” ko‘chasining boshlanishidan kichik chorraha (M.Aliev ko‘chasiga burilishqismi) gacha bo‘lgan qismida transport vositalarining bir tomonlama harakati joriy qilinsin hamda Chinobod ko‘chasi boshiga 3.2 (To‘xtash ta’qqiqlanadi) 7.2.2 (taqiqlovchi belgilarining ta’sir oralig‘i oxirini ko‘rsatadi) yo‘l belgilari o‘rnatishga ruhsat etilsin.

3.Tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi (O.Ergashev)ga Markaz MFY hududidan o‘tgan 4R 112 “Farg‘ona xalqa yo‘li” avtomobil yo‘lining PK 134+500 qismiga tutash bo‘lgan “Oltin sohil” ko‘chasini boshlanish qismi o‘ng tomoniga **3.1 “Kirish ta’qiqlanadi”,5.5 “Bir tomonlama harakatlanish yo‘li”**, oxiri chap tomoniga **5.6 “Bir tomonlama harakatlanish yo‘lining oxiri”** hamda PK 134+500 qismiga tutash bo‘lgan “Chinobod” ko‘chasini boshlanish qismi o‘ng tomoniga **3.27. (To‘xtash ta’qiqlanadi) 7.2.2 (Ta’qiqlovchi belgilarining ta’sir oralig‘i oxirini ko‘rsatadi)** yo‘l belgilari o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman IIB YHXG (Sh.Mamadaliev)ga transport vositalarining mazkur yo‘l belgilariga rioya qilgan holda harakatlanishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari v.v.b. N.Burxonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rasulov**